

AYOLLAR TURLI BICHIMDAGI PALTOLARI TAHLILI

Xoshimova Maftuna Xoshimjon qizi

“Yengil sanoat buyumlar texnologiyalari” kafedrası assisenti

Qo‘chqorova Oygul Sobirxo‘ja qizi

Turg‘unboyev Shukurullo Mamaro‘zi o‘g‘li

IV bosqich talabasi

Farg‘ona Politexnika instituti

Annotatsiya: *Ushbu tezisdá ayollar paltolari assortimenti bo‘yicha tahlili o‘tkazildi. Paltoda ishlatiladigan, yeng, taqilma, yoqa turlari o‘rganib chiqildi. Hozirda ayollar uchun tavsiya etiladigan paltolar tanlab olindi va uning afzalliklari o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *kiyim, usti kiyim, palto, makintosh, yarim palto, trenchkot, palmestron, reglan, daflkot, shuba, dublyonka, splash, pancho.*

АНАЛИЗ ЖЕНСКИХ ПАЛЬТО РАЗНЫХ СТИЛОВ

Аннотация: *В данной статье был проведен анализ ассортимента женских пальто. Были изучены виды рукавов, галстуков, воротников, используемых в пальто. Были выбраны пальто, которые в настоящее время рекомендуются женщинам, и изучены их преимущества.*

Ключевые слова: *одежда, верхняя одежда, пальто, макинтош, полупальто, тренч, пальместрон, реглан, дафлькоут, шуба, дублет, плащ, пончо.*

ANALYSIS OF WOMEN'S COATS OF DIFFERENT STYLES

Annotation: *This article conducted an analysis of the assortment of women's coats. The types of sleeves, ties, collars used in the coat were studied. Currently, the recommended coats for women have been selected and its benefits have been studied.*

Key words: *clothing, outerwear, coat, mackintosh, half coat, trench coat, palmestron, raglan, daflcoat, shuba, doublet, cloak, poncho.*

Kiyim bu - jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyatining bir qismidir. Kiyim bu - kundalik kiyish uchun mo'ljallangan buyumlar va faqat podiumdagina namoyish etildaigan san'at asaridir. Modaning rivojlanishi va kiyimning o'zgarishi xuddi tarixning rivojlanishiga o'xshab spiral bo'yicha ketmoqda. Hozirda kiyim orqali inson o'zining individualligini namoyon qilmoqda. Kiyim yordamida takrorlanmas imidj yarata olish tashqi ko'rinishni mohirona o'zgartira olishdan kamchiliklarni berkitib o'zining tashqi ko'rinishining ustunlik jixatlarini noziklik bilan ko'rsata olishdan insonning nozik didligi ekanligini anglab olish mumkin.

Ayollar paltosi mavsumiy turlariga bahorgi-kuzgi va qishki palto kiradi. Paltolar turli-tuman siluetlarda, ya'ni to'g'ri, nim yopishgan va trapertsiyasimon siluetda bo'lishi mumkin.

Paltolar tugma qadash usuli va adip kengligiga ko'ra bir va ikki bortli bo'lib, taqilmalar tugma va izmali, knopkali, molniyali tasmali bo'lishi mumkin.

Paltolar - ustki kiyim hisoblanib, ko'p qavatli tikuvchilik mahsulotlari hisoblanadi. Ya'ni asosiy gazlama, astarlik va oraliq gazlamalardan iborat. Oraliq gazlamalar uchun dublirin ishlatiladi. Qishki paltolarda isituvchi qatlam ham qo'shish mumkin.

Paltolar yenglari o'tkazma, yaxlit, kombinatsiyalashgan va reglan bichimli bo'lishi mumkin. Yeng uchlariga manjet, moyna, qaytarma manjetlar bilan ishlov beriladi.

Tanlangan modelga qarab turli cho'ntaklar ham qo'yiladi, masalan, qoplama cho'ntak, qopqoqli qirqma cho'ntak, listochkali cho'ntak, chokdagi listochkali cho'ntaklardir. Ular bezak, quyma, bostirma va biriktiruvchi choklarda tikiladi.


Astarliklarni etak bilan biriktirib tikiladi yoki astar etagiga ishlov berib ochiq qoldiriladi.

Palto yoqalari qaytarmali, tik, kapyushonli qilib ishlanadi. Ba'zi paltolar yoqasiz ham bo'lishi mumkin.




Palto uzunligi moda yo'nalishiga qarab (uzun, kalta) tanlanadi.

Quyidagi jadvalda ayollar paltolari turlarini ko'rib chiqishimiz mumkin.

1-jadval

<u>No</u>	<u>Turi</u>	<u>Ta'rif</u>	<u>Na'muna</u>
1	<u>Klassik uslubdagi palto</u>	<u>Asosan tizzagacha uzunlikdagi kalta palto</u>	

2	<u>Trenchkot</u>	Shinelning inglizcha oti bo'lib, yopiq taqilmali klassik uslubdagi plash yoki palto. Unga qaytarma yoqa, pogonlar, xlyastik, belbog' va tasmalar orqasida shlitsa xosdir.	
3	Palmerston	Orqasida yopishgan siluetli erkaklar paltosi. 1784-1865 yillarda yashagan inglizlar bosh vaziri va tashqi ishlar vaziri lord Vikont Palmerston nomi bilan ataladi.	
4	Reglan	Reglan yeng bichimli palto yoki plash. <u>Yeng bichimi</u> 1853-1856 yilda yashagan qo'lidan yaralangan <u>ingliz generali Reglan</u> nomi bilan ataladi.	
5	<u>Makintosh</u>	1830 yillarda paydo bo'lgan suv o'tmaydigan rezinali gazlamadan tikilgan palto yoki plash. Zamonaviy talqinda makintosh sifatida to'g'ri siluetli, qaytarma yoqali orqasida shlitsa bor, yengi reglan, listochkali qirqma cho'ntakli yengil palto tushuniladi. Makintosh odatda gabardin gazlamadan tikiladi.	
6	<u>Daflkot(daffl-coat)</u>	Qalin jun gazlamadan tikilgan kapyushonli yarim palto. Taqilmasi tasmadan yoki charmdan, tayoqcha shakldagi yog'och tugmali.	
7	Plash	Ustki keng bichimli kiyim, <u>odatda suv o'tmaydigan matodan</u> tikiladi.	

8	<u>Shuba</u>	Tabiiy yoki sun'iy mo'ynadan tikiladigan palto	
9	<u>Dublenka</u>	Tabiiy yoki sunhiy mo'ynadan tikiladigan kiyim, mo'yna tarafi palto ichiga, teri qatlami esa o'ngiga tikiladi, mo'ynaning alohida turlaridan, qo'y po'stinidan tikiladi.	
10	<u>Pancho</u>	Poncho Janubiy Amerikaning xindulari kiyimidan ko'chirilgan bo'lib, 1960-yillardan beri urf bo'lib kelmoqda.	



1-rasm. Barcha qomatdagi ayollar uchun mos keladigan palto model eskizi.

Moda hozirgi vaqtda qisqa va vaqtinchalik bo'ladi. Shuning uchun tanlagan liboslarimiz o'sha vaqtning o'zidagina modada, moda o'zgargandan so'ng garderobdan ortiqcha joy egallab, kiyilmaydigan kiyimlar qatoridan joy oladi. Lekin shunga qaramay klassik uslubdagi paltolar hech qachon modadan chiqmaydigan ustki kiyim hisoblanadi. Klassik uslubdagi paltolar, 1-jadvalda ta'kidlaganimiz kabi tizzagacha uzunlikdagi kalta paltolardir. Ular bilan istalgan uslubda obraz yaratish mumkin. Masalan, 1-rasmda ko'rsatib o'tilgan model klassik palto hisoblanadi. Bu model barcha qomatdagi ayollar uchun mos keladi.

Klassik uslubdagi paltolarni nafaqat shim va yubkalar, balki mini uzunlikdagi ko'ylaklar bilan ham kiyilsa bo'ladi.

Yurtimiz iqlimi mo'tadil bo'lganligi sabab, ayollarimizga hech qachon modadan chiqmaydigan ustki kiyimlar, ya'ni klassik uslubdagi paltolar tavsiya etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ayollar paltolari assortimenti bo'yicha tahlili o'tkazildi. Ayollar paltolari mavsumiy ustki kiyim hisoblanadi. Hozirda ayollar uchun klassik uslubdagi paltolar tavsiya etiladi. Bu paltolar o'zining qulayligi va bejirim ko'rinishi bilan garderobdan alohida o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tursunova. X.Sh, "Badiiy bezash usullaridan foydalanib ayollar murakkab bichimlikiyimini ishlab chiqish texnologiyasi tadqiqi", Namangan 2021-y.
2. Tursunova X.Sh, Qo'chqorova O.S, "Kiyimda uslublarning xilma-xilligi va badiiy bezashning taxlili", Termiz 2023-y.
3. <https://pin.it/4CgKbuh>
4. <https://pin.it/2hDQaxS>
5. <https://pin.it/6Bzk1ck>